



**O'ZBEKISTON MUSTAQILLIGI YILLARIDA SOG'LIQNI SAQLASH VA TEZ
TIBBIY YORDAM XIZMATI XUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI VA
TAKOMILLASHTIRILISHI**

(Farg'ona viloyati 1991-2010 yillar misolida)

Azimova Maftuna Muhammadamin qizi

Qo'qon universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada 1991-2010 yillardagi respublika aholisining salomatligi masalalari tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada Farg'ona viloyatidagi sog'liqni saqlash masalalari ilmiy asosda o'rganilgan. Maqolada Farg'ona viloyatidagi QVP (qishloq vrachlik punkti) larning faoliyatiga alohida urg'u berilgan.

Kalit so'zlar: QVP (qishloq vrachlik punkti), sog'liqni saqlash, salomatlik, poliklinika, kasallik, muhofaza, ekologiya, atrof-muhit, sanitariya, qarorlar, farmonlar, shahar, qishloq.

Kirish

Dunyoda atrof muhit muhafazasi bilan bog'liq o'zgarishlar aholi salomatligi saqlash tadbirlarini kuchaytirishni taqozo etadi. Bu borada qator xalqaro tashkilotlar va davlatlar ko'p yillarga mo'ljallangan dasturlar asosida ish olib bormoqda. Xususan, ekologiyani yaxshilash, atrof muhit tozalagini saqlash, oziq ovqat havfsizligini ta'minlash, turli yuqumli va ijtimoiy kasalliklarga qarshi kurash, OITS va onkologik kasalliklar profilaktikasi bo'yicha chora-tadbirlar izchillik bilan amalga oshirib kelinmoqda. Shu sabali respublikada mustaqillikning dastlabki yillaridan aholi salomatligiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Ayniqsa, aholisi ko'p bo'lgan viloyatlarda aholining kasallikka chalinish holatlari ko'plab uchraydi. Jumladan Farg'ona viloyati shunday hududlar sirasiga kirib, aholini salomatligini muhofaza qilishdagi muammolarni bartaraf etish tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili. O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimi asosiy yo'nalishlarining rivojlanishi tarixiga doir adabiyotlar orasida M.Maxmudov¹ va E. Mo'minovalarning² izlanishlari

¹ Махмудова М. Здравоохранения Узбекистана. –Тошкент: Ибн Сино, 1991.

² Мўминова Э. Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тарихи тарихшунослиги (Мутақиллик давридаги тарихий асарлар мисолида).// Қишлоқ тараққиёти ва фаровонлиги йилига бағишланган илмий-амалий анжумани материаллари. II- жилд. –Қарши 2009. –Б. 131.



diqqatga sazovordir. Ular tomonidan sohaning XIX asrning oxirgi choragi va sovet davri tarixi bo'yicha izlanishlar olib borilib, sog'liqni saqlash tizimi tarix fani nuqtai nazaridan o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekistonda mustaqillik yillarining dastlabki bosqichida aholi salomatligi viloyatlar kesimida alohida tahlil etilib, Farg'ona viloyati bu masalada boshqa hududlarga nisbatan o'gir holatda ekanligi ilmiy asosda o'rganildi;

Viloyat aholisini salomatligini saqlashda QVP (qishloq vrachlik punkti) larning o'rni ortib borganligi aniq tahlillar asosida qiyosiy jihatdan aniqlandi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. Respublikada sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish doirasida aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning zamonaviy tizimini shakllantirish borasida muayyan natijalarga erishildi. O'tgan davrda qishloq vrachlik punktlari, shahar va qishloq oilaviy poliklinikalarini tashkil etish orqali birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatish tizimi takomillashtirildi hamda aholining ushbu xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengaytirildi. Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishning yagona markazlashgan tizimi yaratildi, fuqarolarga, jumladan, joylarda yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko'rsatuvchi respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-am aliy tibbiyot markazlari tarmog'i takomillashtirilmoqda.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng barcha sohalarda tubdan islohotlar o'tkazildi. Shu jumladan aholi salomatligi masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Chunki sovet tuzimi sharoitida ekologik holatni yomonlashuvi oqibatida respublikada aholi salomatligi salbiy holatda edi. Xususan, davolanish muassasalari, vrachlik punktlari, sanitariya markazlari joylashgan bino va undagi shart-sharoitlar talabga javob bermas edi. Aholi orasida onalar va bolalar o'limi holatlari ortib borayotgan edi. Ushbu holatlarni hisobga olgan holda respublikada aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rastish uchun sohaning huquqiy va tashkiliy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar olib borildi. 1991 yil sentyabr oyidagi "Sog'liqni saqlash Vazirligi" ning 795-sonli qarori³ bu boradagi dastlabki qadam bo'ldi. Mazkur qaror asosida respublikaning yirik shaharlarida va viloyat markazlarida jonlantirish bo'limlari tashkil etildi va ularning moddiy texnik bazasi mustahkamlandi.

³ Ilmiy texnika va tibbiyot xujjatlari milliy arxivi. M-372. 1-ro'yxat. 178-yig'ma jild. 100-varaq.



Aholi salomatligi asosan qishloq hududlarida qoniqarli darajada emas edi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 21-may "Qishloq ijtimoiy infrastrukturasi rivojlantirishning 1996-2000-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi to'g'risida"gi 182-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 1996-yil 30-may 464-son buyrug'iga asosan respublikada qishloq vrachlik punktlari joriy qilindi. Ushbu qarorlarga binoan QVP 1500 va undan ortiq aholi yashaydigan joylarda tashkil qilina boshlandi⁴. Mazkur qarorning amaldagi ijrosi natijasida qishloq hududlarida sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish ishlari birmuncha ijobiy natijalarga ershildi.

Respublikada tashkil etilgan QVP birlashtirilgan aholiga malakali tibbiy yordam ko'rsatish; aholi o'rtasida kasallanish, jarohatlanish, o'lim va nogironlikning oldini olish chora-tadbirlarini o'tkazish; aholini sanitariya-gigiyena ko'nikmalari bo'yicha bilim saviyasini oshirish, ratsional ovqatlanish, sog'lom turmush tarzi, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishni targ'ib qilish, zararli odatlarning oldini olish, ularga qarshi kurash tadbirlarini tashkil qilish; emlash ishlari, aholi yashaydigan joylar, tashkilot, muassasalar, korxonalarining tozaligi, ichimlik suvi ta'minotini nazorat qilish, ularda joriy sanitariya nazorati o'rnatish; o'sib kelayotgan avlodni sog'lomlashtirish, onalik va bolalikni muhofaza qilish, oilani rejalashtirish, bolalar orasida tug'ma nuqsonlar va nasl kasalliklarini kamaytirish; aholiga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish va ularni vaqti-vaqti bilan tibbiy ko'rikdan o'tkazish, dispanser nazoratiga olish; sil, teri-tanosil, saraton (rak), ruhiy, ichki sekretsiya bezlari kasalliklari va boshqalarga qarshi kurashish bo'yicha davolash-profilaktika choratadbirlarini o'tkazish; aholi o'rtasida kasallanishni, ishchi va xizmatchilarning vaqtincha mehnatga layoqatsizlik sabablarini aniqlash va kamaytirish maqsadida xo'jaliklar, tashkilotlar, korxonalar rahbarlari bilan birgalikda tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish; aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy va profilaktik yordamning sifati va samaradorligini oshirish; kasalliklarni vaqtida aniqlash, zaruriyat bo'lganda tegishli davolash-profilaktika muassasalariga yuborish, vrachlar maslahatini tashkil qilish; mehnatga vaqtincha layoqatsizlik ekspertizasini o'tkazish; xavfli yuqumli kasalliklar, zaharlanishlar kabi favqulodda hodisalar ro'y berganida yuqori (viloyat, tuman markaziy kasalxonalariga) davolash

⁴ https://uz.wikipedia.org/wiki/Qishloq_vrachlik_punkti.



muassasalariga habar berish; aholi sog'lig'ini saqlashga qaratilgan barcha reja-tadbirlarni ishlab chiqish va o'tkazishda jamoa tashkilotlarini jalb etish kabi vazifalarni amalga oshiradi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi yillarda Farg'ona viloyatida 4 ming o'ringa ega bo'lgan 10 dan ortiq shifoxona, 5 ming bemor qatnoviga mo'ljallangan 100 ta ambulatoriyalar yangidan faoliyat yurita boshladi⁵. Olib borilgan chora-tadbirlar natijasida Farg'ona vodiysida aholi salomatligi ijobiy tomonga o'zgardi. Xususan, 1998-1999 yillarda Farg'ona viloyatining 6 ta tumanida qishloq aholisiga tibbiy xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Farg'ona viloyatida 352 dan ortiq ambulatoriya-poliklinikalarining joylarda 282 dan ortiq xonadon-shifoxonalari tashkil etildi, bu muassasalarda 24 ta jarrohlik va 302 ta kunduzgi kompleks davolash muassasalari bemorlarga arzon tibbiy xizmat ko'rsatdi. Tug'ish yoshidagi onalarga yangicha tarizdagi tibbiy xizmat ko'rsatila boshladi. 1999-yillarga 3 ming 200 o'rin-joyga ega bo'lgan va yangidan tashkil etilgan tug'ruq komplekslari xizmat ko'rsatishi yo'lga qo'yildi. 1999yilda Beshariq tumanidagi Andarxon qishlog'ida yangi davolash punkti qurilib, ishga tushirildi⁶.

Viloyat aholisining 70 foizi qishloqlarda yashaydi, aholining 50 foizi 14 yoshgacha bo'lgan bolalardan iborat. Qishloq aholisini sog'lig'ini nazorat qilish, malakali tibbiy xizmat ko'rsatish ma'suliyati yuklatilgan qishloq vrachlik ambulatoriyalari, uchastka shifoxonalari, feldsher, akusherlik punktlarining asosiy ko'pchiligi moslashtirilgan binolarda joylashtirilganligi, zamonaviy tashxis qo'yish, muolajalash, asbob-anjomlari bilan jihozlash, fizioterapevtik xizmatlar ko'rsatish, tibbiy tahlil o'tkazish va tashhis qo'yish imkoni yo'qligi, feldsher-akusherlik punktlarida asosan o'rta tibbiy xodimlari xizmat qilishi sababli bemorlar tuman va viloyat markazlariga qatnashga, yotib davolanishga majbur bo'lishgan. Bu hol ayniqsa Beshariq, Yozyovon, O'zbekiston tumanlari aholisi o'rtasida kuzatilgan, aholi bu sharoitda davolanib kelishlari uchun yo'lga ketadigan harajatlarda qiyin ahvolga tushar edi⁷. Bunday holatlar respublikaning boshqa viloyatlarida bundanda tushkun holatda edi. Shu sababli 1998 yil 10-noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi to'g'risida"gi PF-2107- sonli farmoniga asosan respublikada tez va shoshilinch tibbiy yordamning mukammal bo'lgan sog'liqni saqlash tizimi

⁵ Farg'ona shifokori. // 1992 yil, 29 -may, №10

⁶ Farg'ona shifokori. // 1999 yil, 29- iyuun, №8.

⁷ Farg'ona shifokori. // 2002-yil, 30-yanva, №2.



yaratildi. Mazkur qaror asosida respublikaning barcha viloyatlarida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish yil sayin yaxshilanib bordi. Jumladan, 2000 yillarga kelib respublikadagi jami shifoxonalar soni 1095 tani tashkil etgan bo'lib, shundan eng ko'pi ya'ni 147 tasi Farg'ona viloyatiga to'g'ri kelgan⁸. Albatta bunda viloyatda aholi sonining ko'pligi va aholining zichligi hisobga olingan.

Respublikada aholi salomatligini yaxshilash bo'yicha muttasil olib borilgan say harakatlarga qaramasdan aholi orasida kasalika chalinish holatlari ortib borgan. Xususan, 2010 yillarga kelib, respublika aholisining 15603,2 ming nafar insonlar kasallikning turli hil holatlari bilan kasallangan. Bundan 2053,9 ming nafari⁹ ya'ni 13.16 % Farg'ona viloyatiga to'g'ri keladi. Ko'rinib turibdiki, Farg'ona viloyatida aholisining kasallikka chalinishi respublikaning boshqa hududlariga nisbatan yuqori o'rinda bo'lgan. Bunga sabab sovet hukumatining "paxta yakkaxokimligi" siyostining markazi Farg'ona vodiysi bo'lganligi va uning oqibatida ekologik holatning aholi sog'ligiga keskin ta'sir o'tkazganligi bilan bog'lish mumkin. Bundan tashqari, hududda geografik joylashuviga ko'ra nisbatan namlikning yuqoriligi, aholing joylasguviga ko'ra zichligi kabi omillarni ham sabab qilib ko'rsatishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar. O'zbekiston mustaqillikka erishganiga ko'p bo'lmasidan hukumat tomonidan respublika aholisi salomatligi uning har jihatdan ijtimoiy ta'minoti masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Sovet hukumati tomonidan olib borilgan "paxta yakkahokimligi" siyosati oqibatida keskin ekologik holatga kelib qolgan va buning oqibatida aholi salomatliga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatganligi mustaqillikning dastlabki yillarida hukumat xabarlarini tomonidan muhofazaga olindi. Respublikada olib borilgan chora-tabirlar natijasida sog'liqni saqlash tizimida ko'plab ijobiy natijalarga erishildi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda respublikada aholi salomatligini yaxshilash uchun quydagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Aholi orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishda shifokorlar va hamshiralarning rolini oshirish.
2. QVP (qishloq vrachlik punkti) larning imkoniyatlarini yanada kengaytirish.

⁸ O'zbrkiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekistonda sog'liqni saqlash. Toshkent-2001. –B. 181.

⁹ O'zbekisron respublikasi davlat statistika qo'mitasi hisoboti. (2015 yil)



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Махмудова М. Здравоохранения Узбекистана. –Тошкент: Ибн Сино, 1991.
2. Мўминова Э. Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тарихи тарихшунослиги (Мутақиллик давридаги тарихий асарлар мисолида).// Қишлоқ тараққиёти ва фаровонлиги йилига бағишланган илмий-амалий анжумани материаллари. II- жилд. –Қарши 2009. –Б. 131.
3. ТЕМИРОВА, М. HISTORY OF RADIOFICATION INFRASTRUCTURE IN UZBEKISTAN. UNIVERSITETI XABARLARI, 2019,[1/1] ISSN 2181-7324.
4. Muhammadaminovna, T. M. (2022). Reforms In The Field Of Crime Prevention And Combating Crime In Uzbekistan: Problems And Solutions. Journal of Positive School Psychology, 6(11), 3114-3120.
5. Muhammadaminovna, T. M. (2022). Current Results of Activities of Internal Affairs Preventive Inspectors in Uzbekistan. Eurasian Journal of Research, Development and Innovation, 15, 23-26.
6. Temirova, M. M., & Rakhmatullaeva, S. (2022). The Role And Activity Of Libraries In Preventing Crimes And Raising A Mature Generation In Uzbekistan. Journal of Positive School Psychology, 6(11), 3082-3089.
7. Темирова, М. М. (2020). НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ СОЗДАНИЯ И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТАШКЕНТСКОЙ РАДИОСТАНЦИИ (1926-1930 гг.). In Культура и гуманитарные науки в современном мире (pp. 110-116).
8. Muhammadaminovna, T. M., & Jahangirovna, M. Z. (2022). Some Comments on the Development of Reading in the Internal Affairs Bodies of the Republic of Uzbekistan (In the Case of the Mia of Fergana Region). Eurasian Scientific Herald, 15, 51-54.
9. Ilmiy texnika va tibbiyot xujjatlari milliy arxivi. M-372. 1-ro'yxat. 178- yig'ma jild. 100- varaq.
10. https://uz.wikipedia.org/wiki/Qishloq_vrachlik_punkti.
11. Farg'ona shifokori. // 1992 yil, 29 –may, №10
12. Farg'ona shifokori. // 1999 yil, 29- iyuun, №8.
13. Farg'ona shifokori. // 2002-yil, 30-yanva, №2.